


Taniqli olim xotirasiga barelefli yodgorlik taxtasi o'rnatildi

O'zR FA Fizika-texnika institutida taniqli olim, mamlakatimizda geliotexnika yo'nalishining asoschilaridan biri, O'zbekiston Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi G'iyos Yoqubovich Umarov xotirasiga barelefli yodgorlik taxtasi o'rnatildi.



**TANIQLI O'ZBEK OLIMI
AKADEMIK, TEXNIKA FANLARI
DOCTORI, PROFESSOR
UMAROV
G'IYOS YOQUBOVICH
1946-1988 YILLARDA
MAZKUR INSTITUTDA
FAOLIYAT OLIB BORGAN**

G'iyos Yoqubovich Umarov taniqli fizik olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, texnika fanlari doktori, professor, O'zbekistonda geliotexnika fanining asoschilaridan biridir.

G'.Y. Umarov quyosh nurlari energiyasidan foydalanadigan geliotexnik qurilmalarni ishlab chiqish, yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha yirik ilmiy maktab yaratgan. G'.Y. Umarov boshchiligidagi

mujassamlashtiruvchi qurilmalar va aks ettiruvchi qoplamalar yaratish nazariyasi va amaliyoti, Stirling dvigatellarining asosiy parametrlarini optimallashtirish, hamda geliomaterialshunoslik bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan, quyosh issiqlik qurilmalari va tizimlarining fizik asoslari ishlab chiqilgan.